

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**SHARQ TARIXI,
SIYOSATI VA
HUQUQI
JURNALI**

**ВОСТОЧНЫЙ
ЖУРНАЛ
ИСТОРИИ,
ПОЛИТИКИ
И ПРАВА**

**ORIENTAL
JOURNAL OF
HISTORY,
POLITICS
AND LAW**

ISSN 2181-2780

2025



**Google
Scholar**



Crossref

**GENDER EQUALITY AND FAMILY HARMONY IN AN ENLIGHTENED SOCIETY****Mehriddin Rashidov***1st-year PhD student in Social Philosophy**Bukhara State University*mehriddinrashidov4@gmail.com*Bukhara, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Gender equality, family harmony, social development, legal framework, labor market, international experience, women's rights, Uzbekistan, civil society, gender approach in education.

Received: 07.09.25**Accepted:** 08.09.25**Published:** 09.09.25

Abstract: This article broadly covers the issues of ensuring gender equality and family harmony in an enlightened society. Gender equality is the equal opportunities of men and women in the political, legal, social and economic spheres, and family harmony is seen as an important factor in the stability of society and raising children. The study analyzes the scientific views of international organizations such as the UN, UNESCO, ILO, the World Bank, as well as scientists such as Amartya Sen, Nancy Fraser, Judith Butler. It also highlights the importance of the reforms implemented in Uzbekistan in recent years, in particular, the Law "On Guarantees of Equal Rights and Opportunities for Women and Men" adopted in 2019. Based on foreign experience, the need to include gender equality in educational programs, expand the active participation of women in the labor market, eliminate legal gaps, and develop family businesses is emphasized. At the same time, mechanisms for strengthening family harmony through cooperation between NGOs, civil society institutions and state policy are shown. In conclusion, it is substantiated that gender equality and family stability are important conditions for social development.

MA'RIFATLI JAMIYATDA GENDER TENGLIGI VA OILAVIY TOTUVLIK**Mehriddin Rashidov***BuxDU ijtimoiy falsafa 1-bosqich doktoranti*mehriddinrashidov4@gmail.com

Buxoro, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Gender tengligi, oilaviy totuvlik, ijtimoiy taraqqiyot, huquqiy asoslar, mehnat bozori, xalqaro tajriba, ayollar huquqlari, O'zbekiston, fuqarolik jamiyati, ta'limda gender yondashuv.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ma'rifatli jamiyat sharoitida gender tengligi va oilaviy totuvlikni ta'minlash masalalari keng yoritilgan. Gender tengligi — erkaklar va ayollarning siyosiy, huquqiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy sohalarda teng imkoniyatlarga ega bo'lishini, oilaviy totuvlik esa jamiyat barqarorligi va farzand tarbiyasidagi muhim omil sifatida ko'riladi. Tadqiqotda BMT, UNESCO, XMT, Jahon banki kabi xalqaro tashkilotlar hamda Amartya Sen, Nancy Fraser, Judith Butler kabi olimlarning ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunning ahamiyati ko'rsatib o'tilgan. Xorijiy tajriba asosida gender tenglikni ta'lim dasturlariga kiritish, ayollarning mehnat bozorida faol ishtirokini kengaytirish, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish va oilaviy biznesni rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, NNTlar, fuqarolik jamiyati institutlari va davlat siyosati o'rtasidagi hamkorlik orqali oilaviy totuvlikni mustahkamlash mexanizmlari ko'rsatib berilgan. Xulosa sifatida, gender tengligi va oilaviy barqarorlik ijtimoiy taraqqiyotning muhim sharti ekanligi asoslab berilgan.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО И СЕМЕЙНАЯ ГАРМОНИЯ В ПРОСВЕЩЁННОМ ОБЩЕСТВЕ

Меҳриддин Рашидов

Аспирант 1-го курса по специальности социальная философия

Бухарский государственный университет

mehridдинrashidov4@gmail.com

Бухара, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Гендерное равенство, семейная гармония, социальное развитие, правовая база, рынок труда, международный опыт, права женщин, Узбекистан, гражданское общество, гендерный подход в образовании.

Аннотация: В данной статье широко освещаются вопросы обеспечения гендерного равенства и семейной гармонии в просвещённом обществе. Гендерное равенство — это равные возможности мужчин и женщин в политической, правовой, социальной и экономической

сферах, а семейная гармония рассматривается как важный фактор стабильности общества и воспитания детей. В исследовании анализируются научные взгляды международных организаций, таких как ООН, ЮНЕСКО, МОТ, Всемирный банк, а также таких учёных, как Амартия Сен, Нэнси Фрейзер, Джудит Батлер. Также подчёркивается важность реформ, проводимых в Узбекистане в последние годы, в частности, Закона «О гарантиях равных прав и равных возможностей женщин и мужчин», принятого в 2019 году. На основе зарубежного опыта подчёркивается необходимость включения вопросов гендерного равенства в образовательные программы, расширения активного участия женщин на рынке труда, устранения правовых пробелов и развития семейного бизнеса. При этом показаны механизмы укрепления семейной гармонии посредством взаимодействия ННО, институтов гражданского общества и государственной политики. В заключение обосновывается, что гендерное равенство и стабильность семьи являются важными условиями общественного развития.

Kirish

Ma'rifatli jamiyatda gender tengligi va oilaviy totuvlik masalalari zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Gender tengligi – erkaklar va ayollarning huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy hamda siyosiy sohalarida teng imkoniyatlarga ega bo'lishini anglatadi. Oilaviy totuvlik esa jamiyatning barqarorligi, farzandlarning sog'lom tarbiyasi va ma'naviy muhitning mustahkamligi uchun asosiy omillardan sanaladi. Shu bois ushbu mavzuning o'rganilishi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Maqolaning maqsadi – ma'rifatli jamiyatda gender tengligi va oilaviy totuvlikni ta'minlashga doir muammolarni tahlil qilish, ularning ildiz sabablari va hal etish mexanizmlarini ilmiy asoslangan holda yoritishdan iborat. Mavzuning o'rganilish tarixi shuni ko'rsatadiki, qadimgi sivilizatsiyalardan tortib hozirgi kungacha erkak va ayol munosabatlariga turlicha yondashuvlar bo'lgan. XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa BMT, UNESCO, XMT (Xalqaro Mehnat Tashkiloti) kabi nufuzli tashkilotlar hamda jahon va yurtimiz olimlari gender tengligi masalasini global kun tartibiga olib chiqdi. 1-jadvalga qarang

Gender tengligi va oilaviy totuvlik bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar


T/R	Olim / Tashkilot	Mamlakat / Daraja	Asosiy yoʻnalish / Ishlari
1	UN Women, CEDAW	BMT (xalqaro)	Gender tengligi, huquqiy asoslar, davlatlar boʻyicha tahliliy hisobotlar
2	UNESCO	Xalqaro	Taʼlimda gender tenglik, qizlarning taʼlimga jalb qilinishi va ijtimoiy rivojlanishga taʼsiri
3	Jahon banki, XMT (ILO)	Xalqaro	Ayollar bandligi, mehnat bozoridagi tenglik, iqtisodiy rivojlanish bilan bogʻliqligi
4	Amartya Sen	Hindiston / Nobel olimi	“Development as Freedom” – gender tengligi va taraqqiyot oʻzaro bogʻliqligi
5	Nancy Fraser, Judith Butler, Simone de Beauvoir	AQSh, Yevropa	Gender nazariyalari, feministik qarashlar, jamiyat va oilaviy rollar tahlili
6	Anthony Giddens	Buyuk Britaniya	Sotsiologiya – oilaviy institutlar, gender rollarining oʻzgarishi
7	Qonunchilik va parlament tadqiqotlari instituti	Oʻzbekiston	Gender siyosatining huquqiy asoslari
8	Dilorom Tadjieva, Saida Mirziyoyeva	Oʻzbekiston	Gender siyosati va xotin-qizlar huquqlari boʻyicha ilmiy-analitik ishlari
9	N. Karimova	Oʻzbekiston	“Gender tengligi va ijtimoiy taraqqiyot” nomli ilmiy ish
10	M. Toʻxtayeva, O. Raximova	Oʻzbekiston	Oilaviy qadriyatlar, nikoh-ajrim, barqarorlik va gender munosabatlari
11	Sh. Shodmonova (psixolog)	Oʻzbekiston	Oilaviy totuvlik, farzand tarbiyasi va gender rollarining psixologik taʼsiri
12	“Oila” ilmiy-amaliy markazi	Oʻzbekiston	Oilaviy barqarorlik, ajrimlar sabablari, gender rollari tadqiqotlari
13	Toshkent davlat yuridik universiteti, Buxoro davlat universiteti	Oʻzbekiston	Magistrlik va doktorlik ishlarida “gender siyosati”, “oilaviy huquq” boʻyicha izlanishlar

Oʻzbekistonda ham soʻnggi yillarda bu borada keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”gi Qonun ushbu yoʻnalishda muhim qadam boʻldi.

Maqolada yechilishi lozim bo'lgan asosiy muammo – gender tengligi va oilaviy totuvlikni ta'minlashdagi mavjud to'siqlar, ijtimoiy stereotiplar, huquqiy bo'shliqlar hamda iqtisodiy tengsizliklarni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishdir.

Asosiy qism

Gender tengligi tushunchasi ilmiy adabiyotlarda ko'plab yondashuvlarda sharhlangan. Feministik nazariya, ijtimoiy konstruktivizm va liberal-demokratik qarashlar gender tenglik masalasini turli qirralardan izohlaydi. BMTning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida barcha insonlarning teng huquqliligi ta'kidlangan bo'lib, bu tamoyil davlatlar siyosatida asosiy mezon sifatida qabul qilinmoqda. Oila – jamiyatning asosiy bo'g'ini bo'lib, undagi barqarorlik va totuvlik butun ijtimoiy tizimning muvozanatini belgilaydi. Oilaviy totuvlik – er va xotin o'rtasidagi o'zaro hurmat, ishonch, hamkorlik, mas'uliyat va farzandlar tarbiyasidagi birgalikdagi faoliyatni anglatadi. O'zbekistonda oilaviy qadriyatlar qadimdan muqaddas sanalib kelgan bo'lsa-da, globalizatsiya va migratsiya jarayonlari natijasida oilalarda ajrimlar soni oshib bormoqda. Oilada gehder tenglikni taminlash borasida xorijiy tajribalarga e'tiborga qaraydigan bo'lsak: Norvegiya, Shvetsiya, Finlyandiya kabi Skandinaviya davlatlari gender tengligi va oilaviy siyosat bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Bu mamlakatlarda ayollarning siyosiy va iqtisodiy hayotdagi faolligi yuqori bo'lib, oilalardagi totuvlik darajasi ham barqarordir. Isroil, Singapur va Janubiy Koreya tajribasi shuni ko'rsatadiki, gender tengligini ta'minlash iqtisodiy o'sish va ijtimoiy farovonlikni oshiradi. 1- diagrammaga qarang



Xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvoffiqdir. Oilalarda gender tenglikni amalga oshirish uchun avalambor, maktab va oliy ta'lim dasturlarida gender tengligi, oilaviy mas'uliyat va o'zaro hurmatni targ'ib qiluvchi darslik va qo'shimcha materiallar joriy etish, ayollar va erkaklarni teng huquqli shaxs sifatida ko'rsatadigan reklama, filmlar, ko'rsatuvlar va ijtimoiy roliklarni keng targ'ib qilish hamda an'anaviy qarashlarni yumshatish, oilada qaror qabul qilishda hamkorlikni targ'ib etuvchi tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish kerak bo'lsa, huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish uchun, oiladagi zo'ravonlikka

qarshi kurashish, teng huquqli meros taqsimoti, ayollar mehnat huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunlarni kuchaytirish, genderga oid diskriminatsiya yuzasidan shikoyatlarni tezkor ko'rib chiqish uchun maxsus komissiyalar yoki tezkor sud jarayonlari joriy etish shu bilan birga aholiga bepul maslahat markazlari orqali ayollar va erkaklarga oilaviy hamda mehnat huquqlari bo'yicha tushuntirish ishlarini olib borish lozim. Iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirish uchun, O'zbekistonda kredit va grant dasturlarida ayollarga imtiyozlar ajratish bo'yicha shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsada, ayollarga yuqori daromadli sohalarda (IT, muhandislik, boshqaruv) ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati paydo bo'lmoqda. Shuning bilan birga oilaviy biznesni rivojlantirish uchun soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalarini kengaytirish darkor.

Oilada gender tenglikni ta'minlash maqsadida institutsional mexanizmlarni kuchaytirish yo'lida, har bir vazirlikda gender tengligi bo'yicha mas'ul xodim tayinlash va faoliyatini monitoring qilish. oilaviy nizolarni hal etishda vositachilik qilish, ijtimoiy yordamga muhtoj ayollarni qo'llab-quvvatlash, NNT va fuqarolik jamiyati institutlari orqali gender muammolarini yoritish va ularni hal etish bo'yicha loyiha va tashabbuslarni kengaytirish ishlarini amalga oshirish bu boradagi ishlarni yuqori darajaga olib chiqadi.

Davlat tomonidan qilinadigan bu ishlar o'z natijasini berish uchun jamiyatning turli qatlamlarini birlashtiradigan NNTlar ham oilada gender tenglikni ta'minlash yuzasidan quyidagi ishlarni amalga oshirishi maqsadga muvoffiqdir:

1. Oila markazlari va maslahat xizmatlari – er-xotinlar uchun bepul psixologik maslahat va treninglar tashkil etish.
2. Diniy va ma'naviy targ'ibot – jamiyatda ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'zaro hurmatni mustahkamlovchi targ'ibot ishlari olib borish.
3. Stress va zo'ravonlikni oldini olish – ijtimoiy xizmatlar orqali muammoli oilalarga individual yordam ko'rsatish.

Xulosa

Gender tengligi va oilaviy totuvlikni ta'minlash ijtimoiy taraqqiyotning muhim shartidir. Bu borada ta'lim, mehnat bozorida tenglik, oilaviy qadriyatlar, huquqiy asoslar va ijtimoiy ongning o'zgartirish kabi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu bilan birga, davlat siyosati va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik ushbu jarayonni yanada samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.
3. BMT. Gender Equality Report 2020. – New York, 2020.

4. UNESCO. Global Education Monitoring Report. – Paris, 2021.
5. Karimova, N. Gender tengligi va ijtimoiy taraqqiyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2022.
6. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, 2022-yil.
7. World Bank. Women, Business and the Law Report. – Washington, 2021.
8. Norvegiya Gender Siyosati bo'yicha yillik hisobot, 2020.